

## MAMLAKAT IJTIMOYIY-IQTISODIY TIZIMIDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI QO‘LLANILISHINI AKS ETTIRUVCHI AYRIM INDIKATORLAR

F. B. Shakirova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti,

Sh.Sh. Shixnazarov

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida innovatsion iqtisodiyotni qo‘llanilishini aks ettiruvchi belgilar va un baholash indikatorlari atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, innovatsion salohiyat, indeks, baholash indikatorlari.

Mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni joriy etilganligining keyingi belgilaridan biri mezo-iqtisodiy darajada namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar natijasida, innovatsion iqtisodiyot qo‘llanilganda mezo-iqtisodiy darajada quyidagi jarayonlar sodir bo‘ladi.

1. Hududlarning innovatsion faolligi ortadi. Bu mamlakat hududlarini qisqa, o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan investitsion va iqtisodiy rivojlantirish dasturlari orqali amalga oshirilib, ushbu dasturlar qabul qilingandan so‘ng, ularni amaliyotda joriy etilishi va o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy samarasi hududlarning innovatsion faolligi ortib borishi yoki pasayishida kuzatiladi.


2. Hududlardagi asosiy va yetakchi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishning tarkibiy o‘zgarishi va diversifikatsiyalashuvi yuz beradi. Bu borada mamlakatimiz Iqtisodiyot tarkibida sanoatning rivojlanish dinamikasidagi muhim o‘zgarish korxonalar va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishi, texnik va texnologik yangilanish asosida chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyaning amalga oshirilgani hisoblanadi.

3. Mamlakat hududlarida investitsiyalarni jalb etish va asosiy fondlarni modernizatsiya qilish muhiti paydo bo‘ladi. Bunda davlatning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida: “mamlakatda biznes muhitni yaratish, bozor mexanizmlari, qoida va tartibini joriy etish va ularning to‘liq amal qilishini ta‘minlash” ekanligini ta‘kidlagan edik. Innovatsion iqtisodiyotni joriy etilganligi darajasini mezo-iqtisodiy darajadagi ko‘rsatkichlari sifatida hududlarda gaz, suv va elektr-energiya ta‘minoti hamda yo‘llarning sifatini keltirish maqsadga muvofiq. Xususan, O‘zbekistonda aynan shu infratuzilmaning yetarli va uzlyuksizligini ta‘minlanishi innovatsion iqtisodiyotni samarali joriy etish imkoniyatini beradi, shu bilan birga hududlarga investitsiyalarni jalb etish va asosiy ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiya qilish muhiti paydo bo‘ladi.

Innovatsion iqtisodiyotni joriy etish darajasini belgilovchi makro va mezodarajadagi belgilarini atroflicha ko‘rib chiqdik, ta‘kidlaganimizdek uning mikro darajagi belgilari ham mavjud, ularning asosiylari bo‘lib: korxonalar va tashkilotlar hamda xizmat ko‘rsatish bo‘g‘inlarida asosiy va yordamchi fondlarning yangilanishi, ishlab chiqarish unumdorligi va rentabelligining oshishi, ishlab chiqarish jarayonlarini tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash, yetarli darajada moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lish kabi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotlar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyotda innovatsion iqtisodiyotni belgilovchi ko‘rsatkichlar juda ko‘pqirralidir. Ularni barchasini mazkur maqolada keltirishning birinchidan imkoniyati yo‘q, ikkinchidan ahamiyatga ega ham emas.

Biz ularning asosiylarini yagona bir tizimga keltirgan holda makro, mezo va mikro darajada yoritib berishga harakat qildik, endi ularning yordamida milliy iqtisodiyotda innovatsion iqtisodiyot joriy etilganda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi qanday ko‘rinishi quyidagi rasmda keltirilgan.




1-rasm. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida innovatsion iqtisodiyotni qo'llanilishini aks ettiruvchi belgilar<sup>1</sup>.

Yuqorida mamlakat iqtisodiyotiga innovatsion iqtisodiyotni qo'llash va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida aks etuvchi belgilarini atroflicha o'rgandik. Albatta, qaysidir darajada mamlakat iqtisodiyotida innovatsion iqtisodiyotning qo'llanilishi va uning ahamiyatini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Biroq, mamlakat iqtisodiyotida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish holatiga baho berish imkoniyatini bermaydi.

Bunday baho, fikrimizcha, innovatsion iqtisodiyotni baholash indikatorlari orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti shaoritida iqtisodiy indikatorlar mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatini aniqlashda muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyotni baholash indikatorlarini tadqiq etish quyidagi asosiy jihatlarni e'tirof etishga asos bo'ldi. Zero, har mamlakatda va iqtisodiyotda ushbu masalalarni ijobiy hal etilishi iqtisodiyotning ijtimodiy-iqtisodiy rivojlanishini keyingi bosqichiga o'tish jarayonlarini tezlashtiradi.

Innovatsion iqtisodiyotning holatiga baho beradigan indikatorlar ustida amalga oshirilgan taqiqotlar natijasidagi uning quyidagi rasmda keltirilgan ko'rinishda tizimlashga keltirdik (2-rasm).



2-rasm. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida innovatsion iqtisodiyotni holatiga baho beradigan indikatorlar tizimi<sup>2</sup>.

**1. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash indikatorlarining ahamiyati.** Innovatsiya nazariyasining rivojlanish tarixi o'rganib, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan innovatsiyalar iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlovchi eng asosiy vosita

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasiga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

<sup>2</sup> Tadqiqotlar natijasiga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

bo'lganligiga xulosa qilishimiz mumkin. O'z navbatida innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni salohiyatiga baho berishda innovatsiya indikatorlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion rivojlanish samaradorligini baholashdagi indikatorlar tizimi innovatsiyalarning hususiyatlariga va turli boshqa omillarga bog'liq ravishda hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda halqaro amaliyotda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish darajasini baholashning Innovation Index WB, Innovation Capacity Index, Global Innovation Index INSEAD, Innovation Index WEF kabi ko'rsatkichlari mavjud. Ushbu ko'rsatkichlarning ahamiyati va hisoblash usullarining o'ziga xos hususiyatlari turlicha bo'lib, har bir inovatsion rivojlanish indeksi ma'lum bir tahliliy va boshqaruv vazifalarini bajarishga mo'ljallangan [18]

Tak'irlash joizki, innovatsiya indekslarini hisoblash asosan Jahon banki [23], Xalqaro iqtisodiy forum (The World Economic Forum WEF), BMTning rivojlantirish dasturi (the UN Development Program UNDP), BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti (the UN Industrial Development Organisation UNIDO), YIning Yevropa innovatsiyalari komissiyasi (EU Commission European innovation) kabi xalqaro tashkilotlari buyurtmasiga asosan RAND Corporation va boshqa yirik xalqaro analitik kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi[24]. Shunindek, ushbu tahlillar davlat hukumatlarining milliy iqtisodiyotning innovatsiya salohiyatiga baho berishi, yirik investorlar yoki xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan mablag' ajratishda davlatning innovatsiya siyosati oldidagi vazifalarini belgilab olish maqsadida o'tkaziladi.

Dunyoning yetakchi davlatlarining ilg'or tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda mamlakatlarning innovatsion salohiyatini o'lchashda miqdoriy va sifatni aniqlovchi hamda turli omillarga bog'liq ravishda o'zgarib turuvchi 100 ga yaqin indikatorlar (indeks) amal qiladi. Ushbu indekslarni hisoblashda ta'lim, ilm-fan, texnologiyalar, inson kapitali, innovatsion va ijtimoiy-siyosiy muxit, rasmiy milliy statistika ma'lumotlari, aholi va tegishli mutaxassislardan olingan so'rov natijalari birlashtirilgan holda yaxlit tizimga keltiriladi.

Bizga ma'lumki, keyingi yillarda ekologik muammolar yuzaga kelgani sababli olimlar innovatsion ekotizimni barpo etish bo'yicha ishlarni amalga oshirmoqda. O'z navbatida, rivojlangan mamlakatlarda inson kapitaliga va innovatsiya infrutuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar innovatsion ekotizimni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

Biz tadqiqot ishining oldingi paragrafida milliy innovatsiya tizimini shakllantirish lozimligini nazarda tutib, bunda davlat ishtiroki zarurligi xususidagi tavsiyalarni ilgari surdik. Ushbu tavsiyalarning milliy innovatsiya amaliyotida joriy etilishi mamlakatimiz YaIMi tarkibida ilm-fan yutuqlariga asoslangan yuqori texnologiyalari tovar, ish, xizmatlar hajmining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan fikrdamiz.

**2. Innovatsion iqtisodiyot samaradorligini baholash indikatorlarining turlicha ekanligini hisobga olish va statistik hisobotlarini yuritish.** Ilmiy manbalarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish salohiyatini baholashga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bunday yondashuvlar innovatsion jarayonlarning asosiy maqsadini ko'rsatish bilan birga, uning natijaviyligiga baho beradi. Shuningdek, mamlakatning innovatsion salohiyatini aniqlashda tadqiqotlar o'tkazish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish (yangi bilim, g'oya, texnologiya, tovar, ish, xizmat, boshqarish metodlari, jarayonlar, ijtimoiy-madaniy namunalari va x.k.) imkoniyatlarini kengligi tushuniladi[20]. Masalan, A.A.Makarov ilmiy-texnikaviy faoliyatni natijasini aks ettiruvchi quyidagi ko'rsatkichlarni qayd etadi.

- patent statistikasi;
- texnologik to'lov balansi;
- yuqori ishlab chiqarish texnologiyalarining bozori.

Shuningdek, V.F.Sharov esa innovatsiya tizimini baholash uchun innovatsiya indikatorlariga quyidagilarni qo'shgan.

- mamlakatdagi oliy ma'lumotli aholining ulushi;
- ilmiy tadqiqotlarda xususiy kapitalning ulushi;
- yangi sanoat namunalari;
- patentlar soni va x.k.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ilm-fan yutuqlaridan ishlab chiqarishda foydalanish taboro ortmoqda. Lekin, ta'kidlash joizki, mamlakatimizda innovatsiyalarning samaradorligini baholash indikatorlari ishlab chiqilmagan.

Shu bilan birga davlat tomonidan ilmiy-amaliy va texnikaviy loyihalarni moliyalashtirishga ajratilayotgan mablag'lar salmog'i ham o'sib borish tendensiyasiga ega. Shu nuqtai nazardan, milliy innovatsiya siyosatining samaradorligini aniqlovchi birlamchi tayanch indikatorlar tizimini joriy etish va statistik hisobotlarni yuritish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy manbalarda davlatning innovatsiya faoliyatini baholash indikatorlari quyidagi ko'rsatkichlardan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi[24]:

- ITTKIlarni joriy etish intensivligi indikatorlari;
- inson kapitali indikatorlari;
- ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlanish indikatorlari;
- to'lov balans indikatorlari;
- yillik ilmiy tadqiqotlar;
- ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarishga joriy etish;
- patentlar soni;
- yangi bilimlar oqimi va modellari;
- so'rovlar va intervyular;
- murakkab va doimiy loyihalarni baholash.

Bizning nazarimizda, korxonalarining innovatsion faoliyati samaradorligi yoki davlatning innovatsiya salohiyatiga baho berishda qo'llaniladigan indikatorlar tizimini faqatgina statistik ma'lumotlardan tashkil etilishi innovatsiya jarayonlarining sifati to'g'risida yetarli darajada ma'lumot bermaydi. Shuning uchun innovatsiya tizimi elementlari samaradorligini baholashda miqdoriy statistik ko'rsatkichlar bilan birga, sifatni baholovchi ko'rsatkichlar asosida kompleks indikatorlar tizimini joriy etish lozim. Albatta, bunday jarayonlar tashkil etish va sifatli bajarilishida davlatning ishtiroki zarur.

#### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqotlar va o'rganishlar natijasiga tayanib ta'kidlash joizki, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda innovatsiya salohiyatini yanada oshirish va uning samaradorligini baholashda quyidagi indikatorlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Innovatsiya faoliyatini tashkil etish, yuritish va rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-xuquqiy asoslar bilan ta'minlanganlik darajasi: ushbu iqtisodiy faoliyat qonunlar bilan tartibga solinishi, sohani rivojlanishini davlat va xususiy sektor o'rtasida innovatsion aloqalarni mustahkamlaydi. Ushbu indikator samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholanishi tavsiya etiladi:

- mamlaktda innovatsion rivojlanishni qo'llashda davlatning soliq siyosatining qo'llanilishi va samaradorligi darajasi orqali (soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari, korxonalarining tadqiqotlar olib borish uchun laboratoriya tashkil etish majburiyatlari va boshqalar);

- biznes va ilm-fan o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha xuquqiy asoslar darajasi (me'yoriy-xuquqiy hujjatlarning soni va sifati tahlili. Masalan, institut, universitetlar tadqiqot bilan shug'ullanish majburiyatlari yoki innovatsiya korxonalarini tashkil etish, ishtirok etish xuquqlarini qonun bilan mustahkamlanligi, mualliflik xuquqi bo'yicha ixtirolarni buyurtmachilarga berish mexanizmlarining mavjudligivaboshqalar).

2. Innovatsiyalarni yaratishda xususiy sektorning ishtiroki darajasi: rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektor asosiy iste'molchi sifatida innovatsiya faoliyatini xarakterga keltiruvchi muhim kuch hisoblanadi. O'z navbatida, ish joylarini yaratish va byudjet tushumlarida ham ushbu yo'nalishning ulushi yuqori hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni baholash davlat va xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanayotgan xarajatlar miqdoriga nisbatan amalga oshiriladi.

3. Innovatsiyalarni yaratishda ilmiy-tadqiqot sektorning ishtiroki darajasi: ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshiruvchilar sektori milliy innovatsiya tizimining ajralmas qismi bo'lib, amaliy va fundamental tadqiqotlarning rivojlanishi, mamlakat yoki korxonalar miqyosida ilmiy ishlanmalarning samarasi bevosita ushbu sektorga bog'liq. Bu indikatorni baholashda ilmiy tadqiqotlarda band bo'lgan mutaxassislar, ularning natijaviyligi kabi mezonlar qo'llaniladi.

Shunday qilib keltirilgan indikatorlar tizimi davlat, korxonalar, tashkilotni innovatsiya faoliyati samaradorligiga kompleks baho berishga xizmat qiladi.

**3. Innovatsion rivojlanish darajasini baholovchi indikatorlarni joriy etish muammolari.** Ma'lumki, makroiqtisodiy darajadagi iqtisodiy indikatorlarni hisoblashning turli yo'llari va metodologiyasi mavjud. Ta'kidlash joizki, mazkur indikatorlarni hisoblashning yagona metodologiyasi xalqaro tashkilotlar tomonidan andoza sifatida ishlab chiqilgan, biroq ular ko'pchilik holatda tavsiyaviy xarakterga ega bo'lganligi tufayli mamlakatdagi u yoki bu iqtisodiy indikatorlarni aniqlashda joriy etish bo'yicha majburiyat yuklamaydi. Bu albatta, xalqaro andozalarni hisoblashning yagona metodologiyasini qo'llamagan mamlakatlarning investitsiyalarni jalb qilish va asosiy fondlarni modernizatsiya qilish muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, innovatsion rivojlanishning nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyatini atroflicha tadqiq etish natijalariga tayanib quyidagi xulosalarni shakllantirildi:

- Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlashda innovatsion iqtisodiyotning ishtiroki va joriy qilinganligi makro, mezo va mikroiqtisodiy darajadagi belgilari orqali aniqlash mumkin;
- Innovatsion iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri mamlakat ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning yoshi hisoblanadi.
- innovatsion iqtisodiyotni qo'llash va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga baho berishda iqtisodiy indikatorlar mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatini aniqlashda muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotni joriy etishning qator belgilari mavjud bo'lib, xalqaro amaliyotda ularni holatiga baho beradigan indikatorlar qo'llaniladi. Mazkur iqtisodiy kategoriyalarning milliy iqtisodiyotda qo'llash va ular orqali baholash uchun mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy vaziyat mavjud bo'lishi juda muhim hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI: / REFERENCES:

1. Yuldasheva, S. A., & Murodov, B. X. ugli, Suvonqulov, SI ugli (2020). Negative consequences of monopoly and methods of regulation, 195-196.
2. Арислановна, Ю. С., & Бахтиорвич, Г. Б. (2021). Использование опыта развитых стран в развитии консорциума между высшими учебными заведениями и производством. Европейский журнал молекулярной и клинической медицины, 8(1), 819-826.
3. Арислановна, Ю. С., & Бахтиорвич, Г. Б. (2021). Маркетинговая и информационная поддержка в государственном секторе. Европейский журнал молекулярной и клинической медицины, 8(1), 940-948.
4. Юлдашева, С. А., Гиёсидинов, Б. Б., & Эгамбердиев, О. Б. (2022). ПУТИ И ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(6), 114-117.
5. Юлдашева, С. А., Гиёсидинов, Б. Б., & Эгамбердиев, О. Б. (2022). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(6), 118-123.
6. Юлдашева, С. А., Гиёсидинов, Б. Б., & Эгамбердиев, О. Б. (2022). ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В СОЦИАЛЬНО ЗНАЧИМЫЕ СФЕРЫ. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(6), 133-137.
7. Shakirova, F. B. (2022). THE IMPORTANCE OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATION IN THE ECONOMY. *Confrencea*, 7(7), 61-62.
8. Шакирова, Ф. Б. (2022). МАМЛАКАТДА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ

ШАКЛЛАНТИРИШ ВА САМАРАЛИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 114-118.

9. Шакирова, Ф. Б., & Махмудова, П. (2022). ВЛИЯНИЯ ИНВЕСТЦИЙ И ИННОВАЦИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РОСТ. *Journal of new century innovations*, 15(2), 142-146.

10. Shakirova, F. B. (2022). TALIMDA IMMERSIV YONDASHUV. *Journal of new century innovations*, 15(2), 138-141.

11. Шакирова, Ф. Б. (2015). Социально-экономическое развитие государств Евразии и других зарубежных стран. *Проблемы современной экономики*, (3), 299.

12. Parizoda, M. (2022). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Journal of new century innovations*, 15(2), 147-150.

13. FB, A. S. S., & Shonazarova, N. B. (2022). THE IMPORTANCE OF INVESTMENT ACTIVITIES IN THE RAILWAY TRANSPORT NETWORK IN UZBEKISTAN. *Confrencea*, 6(6), 216-217.

14. Shakirova, F. B. (2020). Digital economy as a new direction of economic theory. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(9s), 4053-4056.

15. Shakirova, F. B. (2018). Improving the mechanism of sustainable economic growth based on innovative development. Tashkent.

16. Шакирова, Ф. Б. (2017). ВОЗМОЖНОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ПОСРЕДСТВОМ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОСТИ: ПОИСКИ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ РЕШЕНИЙ* (pp. 367-368).

17. Mardievna, S. G. (2022). WAYS TO DEVELOP ENTREPRENEURSHIP IN OUR COUNTRY. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 902-905.

18. Shadieva, G. M., Baratovna, S. N., & Muminovich, A. S. (2022). Theoretical Foundations of National Tourism and Competitiveness. *Specialusis Ugdymas*, 2(43), 3166-3177.

19. Шадиева, Г. (2022). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ КАТТАҚЎРҒОН ТУМАНИ РИВОЖЛАНИШИДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК РОЛИ “МАҲАЛЛАБАЙ” ЁНДАШУВИ ОРҚАЛИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss5/a62](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a62). *Экономика и образование*, 23(5), 370-375.

20. Рахманбаева, Р.А. (2020). Главный фактор развития новой экономики постиндустриального общества. *Журнал PalArch по археологии Египта / египтологии*, 17 (6), 14201-14207.

21. Рахманбаева, Р.А. (2020). Главный фактор развития новой экономики постиндустриального общества. *Журнал PalArch по археологии Египта / египтологии*, 17 (6), 14201-14207.

22. Рахманбаева, Р. А. (2022). Пути Повышения Эффективности Деятельности Предприятий Железнодорожного Транспорта. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 3(2), 7-9.

23. Рахманбаева, Р.А. (2022). Современный подход к реструктуризации и модернизации железных дорог. *Испанский журнал инноваций и честности*, 3, 1-6.